

OLLOQULIXONNING ME'MORCHILIKDAGI QILGAN ISHLARI. "TOSH HOVLI SAROYI" TARIXI.

Rajabova Saodatjon Matvapayevna

"Ichan-Qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi "Xorazm Hunarmandchilik tarixi"
bo'limi ilmiy xodimi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xiva xonligida munosib o'ringa ega bo'lgan Olloqulixonning qurilish, ta'mirlash ishlari va obodonchiligi haqida, Shuningdek, Olloqulixon tomonidan qurdirilgan Tosh hovli saroyining tarixi haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Ko'hna Ark, Olloqulixon, Muhammad Yoqub Mehtar, Tarh, Arzxona, vassa.*

WORKS OF OLLOQULIKHANNIN IN ARCHITECTURE. HISTORY OF "TOSH HOVLI" PALAS.

ABSTRACT

In this article, the construction, repair and beautification of Ollaquli Khan, who had a worthy place in the Khiva Khanate, and the history of the Stone Yard Palace built by Ollaquli Khan are briefly discussed.

Keywords: *Kokhna Ark, Ollaquli Khan, Muhammad Yaqub Mehtar, Tarh, Arzkhana, etc.*

1825-yil 7-mayda 50 yoshda bo'lgan Muhammad Rahimxon I vafot qildi. Uning o'rniga taxtga ko'tarilgan o'g'li Olloqulixon (1795-1842) xonlikning hududlarini kengaytirish va chegaralarini mustahkamlash ishlarini davom ettirdi.

Siyosiy-iqtisodiy muammolar bilan shug'ullanish bilan bir qatorda Olloqulixon otasi Muhammad Rahimxon davrida boshlangan qurilish va obodonchilik ishlarini

davom ettirdi. Xon buyrug‘i bilan Pahlavon Mahmud maqbarasi va Ko‘hna Ark koshinlar bilan bezatildi. Ilgaridan Xivada bo‘lgan Sayyid Alovuddin maqbarasi tamirlanib, Arabxon va Muhammad Amin Inoq madrasasi qaytadan tiklandi.

1832-1838-yillarda Olloqulixon tog‘asi Qutlug‘ Murod inoqning jasadini o‘zi bunyod qildirgan madrasa hovlisiga dafn qilish niyatida buzulgan qal’a devori o‘rnida kata hovli, madrasa va karvonsaroy qurishni boshladi. Ushbu ulkan inshootlar qurilishiga bosh qilib Muhammad Yoqub Mehtar tayinlandi va unga Muhammad Rizo Qushbegi yordam berib turdi. Marmar, pishiq g‘isht, yog‘ochdan qurilgan binolarni tiklashda eng qobilyatli xalq ustalari – Nurmuhammad usta Toji, Qalandar Xivakiy, Abdulla Jin boshchiligidagi usatlar va mingdan ortiq qullar mehnat qildilar. Darvozalari koshinlangan, ganch, yog‘och, tosh o‘ymakorligi, bo‘yama naqshlari bilan bezatilgan.

Ro‘y berayotgan qaltis siyosiy vaziyatni e’tiborga olgan Olloqulixon Xurosonga yurish qilib, 20 ming eronliklarni bandi qilib qaytdi va ularning mehnati bilan Xiva shahrining mudofaa imkoniyatlarini kuchaytirishga harakat qildi. Natijada, 1842-yilda Olloqulixon buyrug‘i bilan Muhammad Yoqub mehtar va Otamurod Matrizo qushbegi boshchiligida Ichan qal’aning tashqi qismida uzunligi 6614 va balandligi 4metrli yangi mudofaa devori tiklandi. Qurilishi 30 kun davom etgan devorni Muhammad Rizo Ogahiy “Xisori xush bino “ deb baholadi. Endilikda xonning Rafanik va Nurullaboy degan joydagi bog‘lari ham shahar tarkibiga kirdi. Shu davrlardan boshlab Xiva shahri hududi Dishan va Ichan qal’a degan nom bilan ajratiladigan bo‘ldi.

Olloqulixon tomonidan qurdirilgan “Tosh-hovli” saroyi haqida to‘liq to‘xtaladiga bo‘lsak quyidagilarni keltirish mumkin.

Tosh hovli saroyi Xivadagi tarixiy me’moriy yodgorlik. Xiva xoni Olloqulixon amri bilan qurilgan (1830-1838-yillar). Xalq ustalari Nurmuhammad usta Toji va usta Qalandar Xivakiy tomonidan bunyod etilgan. Tosh-hovli saroyi 3 ta hovli, 5 ta katta ochiq ayvon, 111 ta xonadan iborat. Arzxona (darvozasi g‘arbga), mehmonxona hovli (janubga), haram (darvozasi g‘arbga qaragan). Xorazm mahalliy turar joy

me'morligiga xos uslubda, shahar tashqarisidagi qo'rg'onhovli ko'rinishida bo'lganligi uchun Tosh-hovli deb nomlangan. Atrofi baland devor (qalinligi 1,2— 1,5 m) bilan o'ralgan. Devor tepasi kungurali, darvoza yonlari guldastali. Dastlab haram bunyod etilgan. Tarhi 80×42 m, hovlisi 49×15 m, janubiy qismida 5 ta alohida-alohida ayvon (xon va uning 4 xotiniga mo'ljallangan) bor, ulardan xonalarga dahlizlar orqali kiriladi.

O'lloqulixon buyrug'i bilan 1837-1838-yillarda Tosh hovli saroyida Arzxona barpo etilgan. Qurilishni ikki yilik qisqa muddatda tugallash mumkin emasligini aytishga jurat etgan naqqosh Nurmuhammad usta Tojixon qatl qilingan. Ustaning fojiali o'limidan keyin qurilishni Qalandar Xivakiy davom ettirgan.

1838-1840-yillarda Muhammad Rizo qushbegi va Imom qushbegi nazorati ostida Qutliq Murod inoq madrasasi oldidagi Oq masjid va hammom binolari qayta ta'mirlangan. 1657-yilda Abulg'oz Bahodirxon o'g'li Anushaxon sharafiga qurilgan ushbu imoratlar yillar o'tishi bilan ta'mir talab bo'lib qolgan va atrofida tiklanayotgan yangi imoratlar esa ularning ko'rkini pasaytirmasligi lozim edi.

Mehmonxona haramning janubi-sharqiy qismida qurilgan. 3 yildan so'ng janubi-g'arbiy burchagida Arzxona (tarhi 35 × 40 m) qad rostlagan. Har bir hovlida alohida xizmatchilar xonasi, xo'jalik xonalari, otxona bo'lgan. Hovlilarda ayvonlar o'ziga xos uslubda joylashgan. Haramning janubida 2 qavatli bino oldiga baland qilib 1 ustunli ayvon ishlangan, arz hovli va mehmonxona hovlidagi binoning faqat 2 qavatida 1 ustunli, panjara to'siqli ayvon bor. Hovli markazidagi doira shaklli supaga chodir o'rnatilib mehmonlar kutilgan. Tosh-hovlining tashqi qismi bezaksiz, yaxlit devorli. Hovli atrofidagi ayvon va xonalarga milliy me'morlik an'analari asosan bezakk berilgan. Devordagi ustungo'shalar oralig'iga namoyonlar ishlanib, choksiz ko'k va oq koshin qoplab, girih parchinlardan naqsh hosil qilib terilgan. Mehmonxona va arz hovli devorlari namoyonlarga ajratilib, ko'k, oq va havo rang koshindan gilam nusxa mujassamot yaratilgan. Ayvon devorlaridagi girih va islmiy naqshlar orasidagi doira shakllar ichida arabiy yozuvlar uchraydi. Marmar poyustun va o'ymakori yog'och ustunlardagi doira shakllarda Ogahiyning Xiva xonlari tarixiga oid sherlari,

xon ayvonidagi sharqiy poyustunda 1832-yil va mehmonxona hovlisida katta ayvon poyustunida, arz hovli katta ayvon bezaklari orasida 1838-yil hamda usta Abdulla jin nomi saqlangan. Tosh-hovlidagi xonalar tomi to‘sinli, haram va mehmonxona hovli ayvonlari hovuzakli, xo‘jalik xonalari tomiga qamish bostirib loysuvoq qilingan, ba’zilar vassa shiftli. Xona ichki bezaklari ancha sipo, devor hoshiyalarida, shakldor taxmonlarda, shift osti sharafasi, muqarnas kosachalari ganchkori bezakda, mevali daraxt shoxi va gullar qora, ko‘k va qizil tusda ifodalangan. Hozirgi davrda Tosh-hovli saroyida arxona va mehmonxona qismlarida “Xorazm hunarmandchilik tarixi” bo‘limi joylashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Ahmedov B.A. Новые сведения о Хиве// «ОНУ” – Ташкент,1982.
2. Muhammadrizo Ogahiy. Riyoz ud-davla// Asarlar, V jild. – Toshkent: Fan,1978.
3. Svedeniya o Xivinskom xanstve. Vir. iz jur. —Manufaktur i torgovlya. 1843.
4. Кун А.Л. Заметки о податях в Хивинском ханстве// Туркестанские ведомости, 1873